


59. Metr, detsimetr, santimetr

Yondosh mavzu:
tibbiyot


Uzunlik, o'lchov

Metr, detsimetr, santimetr



1. Akmalning bo'yi 1 m 25 cm. Bu santimetrlarda qancha bo'ladi? Madinaning bo'yi 123 cm. Bu metr, detsimetr va santimetrlarda qancha bo'ladi? Sizing bo'yingiz metr, detsimetr va santimetrlarda qanchaga teng?

$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm} = 100 \text{ cm}$$



$$178 = 1 \text{ yuzl. } 7 \text{ o'nl. } 8 \text{ birl.}$$

$$208 = 2 \text{ yuzl. } 8 \text{ birl.}$$

$$450 = 4 \text{ yuzl. } 5 \text{ o'nl.}$$

$$178 \text{ cm} = 1 \text{ m } 7 \text{ dm } 8 \text{ cm}$$

$$208 \text{ cm} = 2 \text{ m } 8 \text{ cm}$$

$$450 \text{ cm} = 4 \text{ m } 5 \text{ dm}$$

2. Santimetrlarda ifodalang va taqqoslang.

$$5 \text{ m } 6 \text{ dm } 3 \text{ cm} \square 5 \text{ m } 4 \text{ dm } 2 \text{ cm}$$

$$3 \text{ m } 8 \text{ dm } 2 \text{ cm} \square 3 \text{ m } 2 \text{ dm } 8 \text{ cm}$$

$$7 \text{ m } 6 \text{ dm} \square 6 \text{ m } 7 \text{ dm}$$

$$8 \text{ m } 9 \text{ cm} \square 8 \text{ m } 1 \text{ dm}$$

40

3. Santimetrlarda ifodalang va hisoblang.

$$4 \text{ m } 5 \text{ dm } 1 \text{ cm} + 2 \text{ m } 3 \text{ dm } 8 \text{ cm}$$

$$7 \text{ m } 7 \text{ dm } 3 \text{ cm} - 1 \text{ m } 5 \text{ dm } 2 \text{ cm}$$

$$5 \text{ m } 8 \text{ cm} + 2 \text{ m } 6 \text{ cm}$$

$$8 \text{ m } 3 \text{ dm} - 3 \text{ m } 5 \text{ cm}$$

4. Dunyodagi eng baland odam amerikalik Robert Pershing Uodlou. Uning bo'yi 2 m 7 dm 2 cm. Bo'yi eng past odam nepallik Chandra Bahadur Dangi. Uning bo'yi 55 cm. Robert Uodlou Dangidan necha santimetr baland?



5. Saylgohdagi karuselda bo'yi 95 cm dan baland, lekin 1 m 40 cm dan past bo'lgan bolalarga ruxsat beriladi. Ushbu karuselga bolalardan qaysi biriga ruxsat beriladi?

Murod — 1 m 3 dm 1 cm,
Alisher — 1 m 4 dm 5 cm,
Dono — 1 m 28 cm,


Abror — 94 cm,
Malika — 1 m 8 cm,
Madina — 127 cm.



6. Onasining vazni 65 kg, otasi onasidan 17 kg og'irroq. Akmal onasidan 38 kg, Madina esa otasidan 58 kg engilroq. Liftning ko'tara oladigan massasi 300 kg bo'lsa, ular liftga birga kirishlari mumkinmi?



7. Rasmda barcha oila a'zolarining bo'yi ko'rsatilgan. Jadval bo'yicha kim eng balandligini aniqlang. Kim hammadan past? O'g'il otasidan necha santimetr past? Ona qizidan necha santimetr baland?



8. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi xonaning uzunligi va kengligini o'lchang. Uning perimetrini toping va uni metr va detsimetrlarda ifodalang.



9. Santimetrlarda ifodalang va taqqoslang.

46 dm 8 cm ☐ 37 dm 9 cm
7 m 82 cm ☐ 8 m 72 cm
6 m 37 cm ☐ 19 dm 2 cm

1 m 3 dm ☐ 1 m 3 cm
23 dm 1 cm ☐ 2 m 31 cm
5 m ☐ 3 m 2 dm 4 cm